



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUVENAL YUSTITSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSI

Aliyeva Marjona Obid qizi

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey yetakchi
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17513079>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

*yuvenal yustitsiya, jinoiy
javobgarlik, yuvenal adliya,
Ombudsman*

ABSTRACT

Xalqaro va mamlakatimiz miqyosida voyaga yetmaganlarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimining takomillashib borishi natijasida ushbu sohada qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish prokuratura organlari va boshqa idoralar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan voyaga yetmaganlarning huquqlarini sud orqali himoya qilishning xalqaro standartlaridan biri yuvenal yustitsiya hisoblanadi. Ushbu maqola demokratik odil sudlovning muhim bir shakli bo'lgan yuvenal yustitsiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda yuvenal yustitsiyaning tushunchasi, shakllanish tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlarining tahlili o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda har bir demokratik taraqqiyot yo'lidan ketayotgan davlat siyosatining asosini inson huquqlarini ta'minlash tashkil etadi. Chunki, inson huquqlarini ta'minlash, ularni kafolatlash orqali insonning davlatga nisbatan huquqiy maqomi belgilanadi. Xususan, inson huquqlari majmuaviy xarakterga ega bo'lib, u mazmunan bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, jumladan, bola huquqlari ham uning asosini tashkil qiladi. Inson huquqlari tizimida bola huquqlari alohida o'rin tutadi, chunki, bolalar kattalar ega bo'lgan va foydalanadigan huquqlarning hammasidan hali foydalana olishmaydi, natijada esa ularning hali voyaga yetmaganliklari sababli, davlat va jamiyat tomonidan alohida g'amxo'rona munosabat ko'rsatilishi va ayrim imtiyozlar berilishi talab etiladi. Inson huquqlarini himoya qilishning bugunga qadar kunda shakllanib bo'lgan xalqaro va milliy mexanizmlari shu nuqtai nazardan ham yanada takomillashib bormoqda. Huquqning alohida sohasi sifatida e'tirof etilgan inson huquqlari ham hozirgi kunda yanada ixtisoslashib bormoqda. Bunday ixtisoslashuv alohida xalqaro huquqiy himoyaga muhtoj sub'yektlarning o'ziga xos himoya tizimi shakllanib borayotganligi bilan izohlanadi. Jumladan, inson huquqlari sohasida "Ayollar huquqlari", "Nogironlar huquqlari", "Mahkumlar huquqlari", "Bemorlar huquqlari" kabi alohida kategoriyadagi shaxslar huquqlari shakllanmoqda¹. Bunday alohida kategoriyadagi huquqli

¹ Xamidova M.A. Yuvenal yustitsiya u qanday bo'lishi kerak? Risola./Mas'ul muharrir yu.f.d. H.Boboyev. – TDYI. 2006. 40-b

individlar, jismoniy va ijtimoiy ahvollaridan kelib chiqib alohida e'tibor talab etishlari tufayli jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida kamol topish, o'z huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qila olish, jamiyatning imtiyoz va imkoniyatlaridan teng darajada foydalana olish uchun barcha insonlarga tegishli bo'lgan huquqlar bilan bir qatorda, alohida huquqlar, imtiyozlar hamda kafolatlardan foydalanishadi. Bunday huquqlar, imtiyozlar va kafolatlar davlat tomonidan, shuningdek xalqaro hamjamiyat tomonidan taqdim etiladi.

Shu nuqtai nazardan ham jismoniy va aqliy jihatdan kamoloti oxiriga yetmagan, tug'ilgunga qadar ham, tug'ilganidan keyin ham maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlarni, aytaylik, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofida bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilish, yetakchilik xususiyatiga ega bo'lish bo'lmasligi, dunyoqarashi, avvalo, uning tug'ma tabiati, qolaversa, oilada oladigan tarbiyasi, kafolatlarni qamrab oluvchi, xalqaro hamda milliy huquqiy asoslar va mexanizmlardan iborat "Bola huquqlari" degan inson huquqlarining alohida sohasi shakllandi. Bola huquqlari o'zining alohida xalqaro va milliy me'yoriy bazasi va himoya mexanizmlari bilan ham boshqa ayrim kategoriyadagi inson huquqlaridan farq qiladi. Ma'lumki, huquqiy hujjatlarda qayd etib qo'yilganidek, har bir bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilganidan boshlab qo'yilgan ism bilan atalish va u ism bilan yashash, fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek imkon qadar o'z ota-onasini bilish va ular g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlariga ega. Bola, shuningdek, o'zining fikrini erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi, bilim olish, dam olish huquqiga ega, ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola, alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga haqli hisoblanadi. Hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri bola huquqlari va erkinliklarini har tomonlama ta'minlanishi va himoyalanihini amalda qonunlar asosida ro'yobga chiqarilishiga erishishdir. Yuqorida aytilganlarning barchasi amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari va nodavlat muassasalari, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini yaxshiroq ta'minlanishiga e'tibor berilishi lozim. Bu jarayonda esa yuvenal yustitsiya tushunchasining mohiyatini, uning asoslarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Xususan, bugungi kunda *yuvenal yustitsiya* voyaga yetmaganlarga nisbatan yuritilayotgan odil sudlovning umume'tirof etilgan xalqaro standarti hisoblanibgina qolmasdan, milliy qonunchiligimizda uning huquqiy hamda institutsional asoslari qisman mavjudligi, o'z navbatida, hozirda yurtimizda qizg'in kechayotgan konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida ushbu institutning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash masalasi muhim o'rin egallamoqda. Ta'kidlanganidek, bugun ushbu sohada Prezidentimiz boshchiligida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila, Fuqarolik, Mehnat, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar, "Bola huquqdarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlar hamda boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlardagi huquqiy asoslar muntazam takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, ayni konstitutsiyaviy islohotlar davrida Bosh qomusimizga bola huquqlariga doir

10 ta asosiy o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, eski tahrirdagi Konstitutsiyaning 2 ta moddasida atigi 4 marotaba "bola" so'zi ishlatilgan bo'lsa, amaldagi Konstitutsiyamizda amalga oshirilgan o'zgartish va qo'shimchalar tufayli 7 moddada 15 marotaba "bola" so'zi qo'llanilgan.

Bundan tashqari, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"dagi 4 ta maqsad bolalar himoyasi masalalariga qaratilgan. Xususan, "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniyligni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash" deb nomlangan 14-maqsadda "Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqdari qonunchiligini kodifikatsiyalash" vazifasi belgilangan. Shu munosabat bilan, aholining o'ziga xos, nozik bir qatlami bo'lmish bolalarning odil sudlovga bo'lgan huquqi, uning kafolatlanishini kuchaytirishga doir ayrim masalalar haqida fikr yuritmoqchimiz. Xususan, ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, statistik va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar

Avvalo, jahon yustitsiyasi amaliyotida amal qilib kelayotgan yuvenal yustitsiya tizimining mamlakatimiz sudlovida tutgan o'rni haqida tahlil qilar ekanmiz, yuvenal yustitsiya tushunchasining mohiyati, uning qonunchiligimizda keltirilgan normativ-huquqiy asoslari mavjudligining darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuvenal yustitsiya tushunchasi, yuqorida ta'kidlanganidek, "**Juvenile justice**" xalqaro atamasidan kelib chiqqan bo'lib, u voyaga yetmaganlar uchun odil sudlov, yoki "voyaga yetmaganlar sudi" ma'nosini anglatadi². Ammo, xorijiy adabiyotlarda va chet el qonunchilik tizimida odil sudlov tushunchasidan ko'ra, yustitsiya atamasi keng qo'llaniladi, shu sababli mazkur atamani aynan, voyaga yetmaganlar adliyasi yoki voyaga yetmaganlar uchun adliya tushunchasi sifatida tushunish mumkin. Lekin, bunday anglashda yuvenal yustitsiya faqat oddiy sudlarning bir ko'rinishi sifatida tatbiq qilinmaydi, aksincha yuvenal yustitsiya oddiy suddan ancha farq qiladigan,, jamiyatning, jamoatchilikning voyaga yetmaganlar taqdirida va ularning huquqlarini himoya qilishda, ularga daxldor muammolarni hal etishda keng ishtirok etishini taqozo etuvchi, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta'minlashda bir tizim vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda o'tkazilayotgan sud-huquq islohotlari zamirida yana bir muammo – huquqbuzarlik yo'lga kirib qolgan voyaga yetmaganlarning javobgarligi, ularni to'g'ri yo'lga qaytarish masalasi hamda bunday kategoriyani tashkil etuvchilarga nisbatan ijtimoiy, muhofazaviy choralar qo'llashni takomillashtirish masalalari juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu vazifa nafaqat davlatning, balki, butun boshli jamiyatning muamosi hisoblanadi va ularning taqdiriga oila, maktab, mahalla, o'quv yurti kabi bo'g'inlarning barchasi daxldor hisoblanadi. Mana shunday sharoitda huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning, o'smirlarning huquqlarini himoya qilish, ularning odil sudlovga bo'lgan huquqlarini ta'minlash juda muhim vazifaga aylanmoqda. Bilamizki, voyaga yetmaganlarning ishini sudda ko'rish alohida yondashuvni, maxsus yondashuvdagi protsessual jarayonni taqozo etadi. Aytish kerakki, O'zbekistonda sudlovni amalga oshirishda yuvenal yustitsiyaning ayrim elementlari mavjud. Masalan, sudlarda voyaga yetmaganlar ishini ko'rishda, an'anaviy ishtirokchilardan tashqari, jamoatchilik vakili, tegishli hollarda pedagog, psixologlar ishtiroki protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan. Bundan tashqari, "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha" maxsus komissiya,

² Introduction a la justice des mineurs, Patrice Saceda., Vauresson, CNFE-PJJ, novembre 2001.

“Bola huquqlari bo’yicha vakil- Ombudsman” institutining mavjudligi, yuvenal yustitsiyani joriy qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning boshlanishi hisoblanadi. Ammo, hozirgi kunda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan alohida sudlar tizimi hali shakllanmagan, Shu bois, voyaga yetmagan ayblanuvchi, sudlanuvchi, hattoki guvohning ham huquqlarini ta’minlash masalasi yanada dolzarblik kasb etadi. Chunki, voyaga yetmaganlarning sodir etgan huquqbuzarliklariga nisbatan davlat ta’sir choralarini qo’llashning juda murakkab va mas’ul vazifa ekanligini hisobga olgan holda, bunday ishlarni ko’rishning maxsus sud organlari tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq³.

Ta’kidlash kerakki, yuvenal yustitsiyani, jumladan, uning markaziy bo’g’ini bo’lgan voyaga yetmaganlar sudini tashkil etish ancha murakkab jarayon bo’lib, u o’z ichiga nafaqat huquqiy, balki tashkiliy, iqtisodiy hamda ma’naviy jihatlarni ham oladi. Yuvenal yustitsiya tizimini tashkil etish, uni mamlakatimizdagi sud-huquq tizimidan munosib o’rnini egallashi birdaniga amalga oshadigan jarayon bo’lmay, u ancha murakkab tayyorgarlik jarayonini talab etadi. Masalaning yana bir murakkab tomoni – bu masalada mamlakatimizda tajriba kamligida ifodalanadi. Shu bois, mazkur masalani hal etishda xalqaro tajribani juda chuqur o’rganib chiqish, ularni malakali tahlil etish, yuridik fan hamda boshqa bolalarga oid fanlar vakillarini ham bu masalani hal etishga jalb etish dolzarb va mashaqqatli vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Yuvenal yustitsiyaning tarixiy bosqichlari va xorijiy amaliyotdagi rivojlanish jarayoni bugungi kunda ushbu institutning voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo’lgan huquqini ta’minlashning samarali mexanizmi ekanligini isbotlamoqda. Voyaga yetmaganlarning sodir etgan huquqbuzarliklariga nisbatan davlat ta’sir choralarini qo’llashning juda murakkab va mas’ul vazifa ekanligini hisobga olgan holda, bunday ishlarni ko’rishning maxsus sud organlari tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq ekanligi yuqoridagilardan anglashilib turibdi. E’tiborli jihati, yuvenal yustitsiya ko’plab xalqaro hujjatlarda bola huquqlarini ta’minlash sohasidagi asosiy institut sifatida ko’rsatib o’tilgan. Xalqaro standartlar va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda yuvenal yustitsiyaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish istiqbollarini aniqlash, shu jumladan, uning konseptual va bazaviy asoslarini Konstitutsiyada mustahkamlash — bu boradagi milliy amaliyotning rivojlanishiga zamin yaratadi. Buning uchun esa O’zbekistonda yuvenal yustitsiya bo’yicha milliy qonunchiligimizni va huquqni qo’llash amaliyotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o’rganish, rivojlangan demokratik mamlakatlarda samarali qo’llanilayotgan yuvenal yustitsiya modellarini tahlil qilib, ularning ma’qul tomonlarini aniqlash, milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish bo’yicha tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Mo’minov A., Tillaboyev M. Inson huquqlari. Darslik. /Mas’ul muharrir A.X.Saidov - T.: Adolat, 2013.
2. Xamidova M.A. Yuvenal yustitsiya u qanday bo’lishi kerak? Risola./Mas’ul muharrir yu.f.d. H.Boboyev. – TDYI. 2006. 40-b.
3. Lukashuk I.L. Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. Darslik. –T.:Adolat, 2006. 424 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

³ Mo’minov A., Tillaboyev M. Inson huquqlari. Darslik. /Mas’ul muharrir A.X.Saidov - T.: Adolat, 2013.

5. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 1-2-son, 1-modda, 2009 y., 52-son, 554-modda.
6. “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1995. №12, – 262-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi davlat sayti: www.mygov.uz
8. BMT sayti: www.un.org
9. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari sayti: www.ohchr.org
10. YUNESKO sayti: www.unesco.org

